Research and publications

TAFAKKUR MANZILI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2026

www.reandpub.uz
+998 (97) 277 78 01
info@reandpub.uz

TAFAKKUR MANZILI

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

1-SON, 1-JILD MART – 2026 -YIL 1-QISM

TAFAKKUR MANZILI
2026 - FEVRAL

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAFAKKUR MANZILI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Qodirova Odinaxon Djuraboevna

Andijon davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsenti.

Karimov Elmurod Salimjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti Registrator ofisi Xizmat ko‘rsatish (front office) bo‘limi boshlig‘i. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori. PhD

Abdullayev Elmurod Zaylobidinovich

Andijon davlat universiteti “Fizika-matematika va IT injiniring” fakulteti “Kompyuter injiniring ” kafedrasi Dotsenti. Pedagogika fanlari bo’yich falsafa doktori (PhD).

Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich

Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti dekani Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v/b dotsenti

Тешабоева Гулноза Алимжоновна.

Андижон давлат педагогика институти Бошланғич таълим кафедраси Филология фанлар бўйича фалсафа доктори(PhD), в.б доцент.

ABDUMALIKOV ILIMJON ABDUXAMJONOVICH

Andijon davlat universiteti, Huquq-iqtisod fakulteti, Huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasi dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich

Andijon davlat universiteti Kompyuter injiniringi kafedrasi mudiri. Pedagogika fanlari bo’yich falsafa doktori (PhD)., dotsent.

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQINING FRONT VA FRONT ORTIDAGI JASORATI

Shukurov Jasurbek
Turon unversteti Andijon filiali

Annotatsiya: ikkinchi jahon urushi (1941–1945) yillarida o‘zbek xalqi front va front ortida yuksak jasorat, matonat va fidoyilik namunasini ko‘rsatdi. Minglab o‘zbek yigitlari jang maydonlarida qatnashib, fashizmga qarshi kurashda mardlik ko‘rsatdilar.

Kalit so‘zlar: **ikkinchi jahon urushi, front, front orti, jasorat, fidoyilik, vatanparvarlik, Sobir Rahimov, Turg‘unboy Omonov, O‘zbekiston, harbiy xizmat, mehnat fronti, g‘alaba.**

Подвиг узбекского народа на фронте и в тылу в годы Второй мировой войны

Аннотация: В годы Второй мировой войны (1941-1945) узбекский народ явил пример высокого мужества, стойкости и самоотверженности на фронте и в тылу. Тысячи узбекских юношей сражались на полях битв и проявили героизм в борьбе с фашизмом.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронт, тыл, мужество, самоотверженность, патриотизм, Сабир Рахимов, Тургунбай Аманов, Узбекистан, военная служба, трудовой фронт, победа.

The heroism of the Uzbek people at the front and in the rear during the Second World War

Abstract: During the Second World War (1941-1945), the Uzbek people demonstrated high courage, resilience, and selflessness on the front lines and in the rear. Thousands of Uzbek youths fought on the battlefields and showed heroism in the fight against fascism.

Keywords: Second World War, front, home front, courage, selflessness, patriotism, Sabir Rakhimov, Turgunbay Amanov, Uzbekistan, military service, labor front, victory.

Kirish: Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushlardan biri bo‘lib, u 1939-yil 1-sentabrda Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi bilan boshlandi va 1945-yil 2-sentabrda Yaponiya taslim bo‘lishi bilan yakunlandi. Bu urushda 60 dan ortiq davlat, 1.7 milliarddan ziyod inson bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi. O‘zbekiston bu davrda sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lsa-da, xalqimizning g‘alabaga qo‘shgan hissasi, ko‘rsatgan jasorati va fidoyiligi tarix sahifalarida oltin harflar bilan bitilgan.

Urush yillari o‘zbekistonliklar nafaqat frontda, balki orqa frontda ham o‘z jonini ayamagan holda mehnat qildilar. Minglab o‘g‘il-qizlar frontga jo‘nab, dushmanga qarshi mardlarcha jang qildilar, millionlab ayollar, qariyalar va bolalar esa zavod, fabrika va dalalarda tinmay ishladilar. Ularning fidoyiligi tufayli sovet armiyasi doimo o‘q-dorilar, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlanib turdi. Mazkur maqolada o‘zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushidagi jasorati, ularning harbiy va mehnat frontidagi faoliyati, shuningdek urushning respublika ijtimoiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Ushbu maqola tarixiy-solishtirma, tizimli-tahliliy va konseptual yondashuvlar asosida yozildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asoslari sifatida tarixiylik, voqelikni aniq faktlarga tayangan holda yoritish, mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish tamoyillari tanlandi. Maqola yozishda tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, nashr qilingan ilmiy monografiyalar, maqolalar hamda davr adabiyoti va memuarlar asos sifatida foydalanildi.

Asosiy qism:

O‘zbek diviziyalarining tashkil qilinishi. Urushning birinchi kunlaridanoq O‘zbekistonda xalq lashkarlarining otryadlari tuzila boshladi. Keyin bu otryadlar umumiy harbiy ta’lim bo‘linmalariga qo‘shildi. O‘zbekistonda front uchun milliy harbiy qismlar va jangovar rezervlarni tayyorlash ishi boshlanib ketdi. 1941-yil yozida Samarqandda 19-O‘zbek tog‘-otliq diviziyasi qayta tuzilib, uning asosida 221-motorlashtirilgan diviziya tashkil qilindi. Diviziyada bu paytda katta tajribaga ega o‘zbek ofitserlaridan polkovnik Ismoil Bekjonov, mayor Sobir Rahimov va boshqalar bor edi. Diviziya jangchilari 17-

mexanizatsiyalashgan korpus saflarida Yelna yaqinida dushmanga qarshi janglarda ilk marta qatnashdilar.

O‘zbekistonning urush yillaridagi holati 1941-yil 22-iyun kuni fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga hujum qilgach, butun mamlakat safarbar etildi. O‘zbekiston hududi urushning to‘g‘ridan-to‘g‘ri jang maydoniga aylangan bo‘lmasa-da, front ehtiyojlarini ta’minlovchi muhim iqtisodiy, sanoat va madaniy markazga aylandi. Urush boshlangan dastlabki oylaridanoq O‘zbekistonda evakuatsiya qilingan 200 dan ortiq zavod va fabrika joylashtirildi. Masalan, Moskva va Leningraddan keltirilgan mashinasozlik korxonalari Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Andijon va boshqa shaharlar hududida ish boshladi. Bu korxonalar qisqa fursatda qurollar, o‘q-dorilar, harbiy texnika uchun zarur detallar ishlab chiqara boshladi. Ayollar va o‘smirlar erkaklar o‘rniga mehnat frontiga chiqdi. Ulardan ko‘pchiligi front uchun kiyim-kechak, oziq-ovqat tayyorlashda, paxta yig‘im-terimida, zavodlarda ishlab, g‘alabaga o‘z hissasini qo‘shdi. Ayniqsa, o‘zbek ayollari jasorati tarix sahifalarida alohida o‘rin egallaydi. Shular qatorida Zulfiya, Tursunoy Sodiqova, Tamara Xudoyberdiyeva kabi ayollar faolligi jamiyatda vatanparvarlik ruhi uyg‘otgan.

Mehnat frontidagi qahramonlik Urush yillarida respublikadagi barcha tarmoqlar front ehtiyojiga bo‘ysundirildi. O‘zbekiston aholisining 70 foizdan ortig‘i front ortida tinmay mehnat qilgan. Dehqonlar, ishchilar, ziyolilar — barchasi “Hamma narsa front uchun!” shiori ostida birlashgan. Frontga 3 million tonnadan ortiq paxta, minglab tonna g‘alla, sabzavot, meva va go‘sht mahsulotlari jo‘natilgan. Respublikada ayollar harbiy kiyimlar tikish, oziq-ovqat tayyorlash, yaradorlarni parvarishlashda faol qatnashgan. Ko‘plab yoshlar urush yillarida texnik maktablarda o‘qitilib, keyinchalik frontda yoki sanoatda xizmat qilganlar. O‘zbekiston hududiga evakuatsiya qilinganlar va ularning ta’siri Urush paytida O‘zbekistonga 1.5 milliondan ortiq kishi evakuatsiya qilingan - ularning orasida Rossiya, Ukraina, Belarus, Baltika mamlakatlari aholisi, ilm-fan va madaniyat vakillari ham bor edi. Masalan, Leningrad konservatoriyasi, Moskva teatr maktabi, ilmiy institutlar Toshkent va Samarqandga ko‘chirildi. Bu esa O‘zbekiston madaniy hayotining rivojiga kuchli turtki berdi.

Stalingrad jangi Ikkinchi jahon urushida tub burilishni boshlab berdi. Kavkaz uchun bo‘lgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qo‘mondonligidagi diviziya 3 oy davom etgan janglarda dushmanning 8000 nafar askar va ofitserini qirib tashladi. Gvardiyachi generalmayor S.Rahimov 1945-yil 26-mart kuni Polshadagi Gdansk (Dansig) shahrini shturm qilish vaqtida halok bo‘lgan. O‘zbek xalqining shonli farzandiga 1965- yil 9-mayda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

O‘zbekistonliklar yevropadagi Qarshilik ko‘rsatish harakati saflarida, Polsha, Bolgariya,Vengriya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Italiya, Gretsiya, Avstriya, Yugoslaviya, Fransiya va boshqa davlatlarni fashizmdan ozod etishda faol qatnashdilar, partizan qo‘shilmalarida jang qildilar. 1945-yil 9-mayda gitlerchilar Germaniyasi butunlay tas- lim bo‘ldi. Berlinni zabt etgan jangchilar orasida Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan toshkentlik Botir Boboyev va Solih Umarov, marg‘ilonlik Tojiali Boboyev ham bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushida fashistik Germaniya va militaristik Yaponiya ustidan erishilgan buyuk g‘alaba taraqqiyparvar insoniyatga juda qimmatga tushdi. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, Ikkinchi jahon urushida 50 mln nafardan ziyod kishi halok bo‘ldi. Bu urushda eng katta talafotga uchragan SSSR bo‘lib, u 27 mln kishidan ajraldi. Vayrongarchilikdan ko‘rilgan zarar va urush olib borish uchun sarflangan mablag‘lar miqdori 4 trillion dollarni tashkil qildi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, urush yillarida Germaniyaga asirga tushganlarning umumiy soni 6.2 mln kishini tashkil qilgan. Sovet-german urushida 5.7 mln kishidan ortiq sovet askarlari Germaniya konslagerlarida tutqunlikda bo‘lishgan. Asir tushishga majbur bo‘lgan sovet jangchilari orasida ko‘plab turkistonlik asirlar ham bo‘lgan.

Ana shunday asirlardan biri va sobiq legioner, keyinchalik Germaniyada yashagan namanganlik tarixchi olim Boymirza Hayit fikrlariga qaraganda, 1941-yil yozidan to 1942-yil bahorigacha 1.7 mln turkistonlik jangchilar nemislarga asir tushgan hamda ularning ko‘pchiligi harbiy asirlar konslagerlarida bo‘lishgan. 1942-yil yozida ulardan faqat 400 000 kishi tirik qolgan, xolos. Fashist konslagerlarida harbiy asirlar juda og‘ir ahvolda yashagan, ocharchilik va turli kasalliklardan ularning ko‘pchiligi halok bo‘lgan.

Turkistonlik muhojirlardan Mustafo Cho‘qay va toshkentlik o‘zbek Vali Qayumxon tashabbusi bilan 1942-yil martda Turkiston legioniga asos solingan. Legionni siyosiy va mafkuraviy jihatdan boshqarish Milliy Turkiston Birligi Qo‘mitasiga yuklatilgan. Vali Qayumxon qo‘mita prezidenti edi.

Jang harakatlari davrida harbiy asirlikda bo‘lganlar, xususan, Turkiston legioni qatnashchilarining taqdiri ham nihoyatda og‘ir kechdi. Urush tugagach, ular hamma joyda ta’qib etildi, SSSRga qaytarilgan harbiy asirlarning ko‘pchiligi maxsus lagerlarga joylashtirilib, turli qiynoqlarga duchor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1995-yili 33 jildli “Xotira” kitobi (keyinchalik unga qo‘shimcha tarzda yana 2 jild chiqqan) va O‘zbekiston xalqining urush yillarida front ortidagi jasoratlari bayon qilingan umumlashma maxsus jild o‘zbekcha va ruscha nashr etildi. Toshkentda 1999-yil may oyida Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilib, unda “Motamsaro ona” haykali hamda xiyobonning shimoliy va janubiy tomonida qad ko‘targan ayvonlar tokchalarida Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan o‘zbekistonlik barcha jangchilarning ism-sharifi bitilgan metall tokchalar o‘rnatildi. G‘alaba bayrami nishonlanadigan 9-may sanasi Xotira va Qadrlash kuni deb e’lon qilinib, Toshkentdan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar markazlari va tumanlarda Xotira maydonlari barpo etilib, bu maydonlarda ham “Motamsaro ona” haykali o‘rnatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Rasulov Sh. Ikkinchi jahon urushi tarixidan lavhalar. – T.: O‘zbekiston,
3. 2015.
4. G‘ulomov A. O‘zbekiston urush yillarida. – Samarqand, 1989.
5. Xolmatova D. O‘zbekiston xalqining frontdagi jasorati. – Toshkent, 2012.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA DOLZARB MASALALARI

Jinoyat ishlari bo’yicha Boyovut tuman sudining tergov sudyasi

Xolmatov Baxrom Uktamovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari, xalqaro va milliy qonunchilik tizimi hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan giyohvandlik vositalariga qarshi konvensiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Jinoyat kodeksidagi tegishli normalar ko‘rib chiqiladi. Giyohvandlikka qarshi kurashishda profilaktika, huquqbuzarliklarning oldini olish, jazoni muqarrarligi, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish masalalarining dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, huquqiy asoslar, xalqaro konvensiyalar, milliy qonunchilik, jinoyat kodeksi, profilaktika, reabilitatsiya, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanma, yoshlar siyosati.

Правовые основы и актуальные вопросы борьбы с наркоманией

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы борьбы с наркоманией, система международного и национального законодательства, а также их практическое значение. В частности, рассматриваются конвенции о борьбе с наркотическими средствами, принятые Организацией Объединённых Наций, а также Закон Республики Узбекистан "О наркотических средствах и психотропных веществах" и соответствующие нормы Уголовного кодекса. Освещается актуальность вопросов профилактики, предупреждения правонарушений, неотвратимости наказания, реабилитации и социальной адаптации в борьбе с наркоманией.

Ключевые слова: наркомания, правовые основы, международные конвенции, национальное законодательство, уголовный кодекс, профилактика, реабилитация, психотропные вещества, незаконный оборот, молодёжная политика.

Legal Basis and Current Issues of Combating Drug Addiction

Abstract: This article analyzes the legal framework for combating drug addiction, the international and national legal system, and their practical significance. In particular, the Conventions against Narcotic Drugs adopted by the United Nations, as well as the Law of the Republic of Uzbekistan "On Narcotic Drugs and Psychotropic Substances" and relevant norms of the Criminal Code will be considered. The relevance of issues of prevention, crime prevention, the inevitability of punishment, rehabilitation, and social adaptation in the fight against drug addiction is highlighted.

Keywords: drug addiction, legal framework, international conventions, national legislation, criminal code, prevention, rehabilitation, psychotropic substances, illicit trafficking, youth policy.

Bugungi kunda jamiyatimizda, O’zbekiston Respublikasi giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo’yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi o’z majburiyatlarini to‘laqonli bajarishiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur maqolada giyohvandlik, uning salbiy oqibatlari, giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda Yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar atroflicha yoritilgan. Ta’kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasi 1995 yil fevral oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi **“Narkotik moddalar** to’g’risida”gi Yagona Konvensiyasi, 1971-yildagi **“Psixotropmoddalar to’g’risida”gi** hamda 1988-yildagi **“Giyohvandlik vositalari va psixotropmoddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash** to’g’risida”gi Konvensiyalariga a’zo bo’lgan.

1999-yilda O’zbekiston Respublikasining **“Giyohvandlikvositalari va psixotrop moddalar to’g’risida**”gi Qonuni qabul qilingan bo’lib, mazkur qonunga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga zid ravishda muomalada bo’lishning har qanday ko’rinishlariga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan. Mamlakatimizda giyohvand moddalar savdosi va iste’moliga qarshi keskin choralar ko’rilayotgan bo’lsa-da, bugun giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi eng xatarli va dolzarb muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Giyohfurushlar yangi usul va nayranglarni qo’llab, zahri qotilni sotish harakatlarini davom ettirishmoqda. Ular manfur

maqsadlarini amalga oshirish yo'lida hali dunyoqarashi shakllanmagan, o'zgalar ta'siriga tushib qolishgan moyil yoshlar umriga zomin bo'lishmoqda.

Insoniyat o'zining butun tarixi davomida giyohvandlik muammosining sabablarini aniqlash, uning oldini olish hamda samarali kurash choralarini ishlab chiqishga intilib kelmoqda. Biroq amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarga qaramasdan, XXI asrga kelib ham giyohvandlik insoniyat oldidagi eng dolzarb va murakkab muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Bugungi kunda giyohvandlik nafaqat alohida shaxs salomatligiga, balki butun jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan ijtimoiy xavfli hodisaga aylangan. Ushbu illatning yetkazayotgan zarari ko'lamini to'liq hisoblab chiqish amalda nihoyatda mushkul bo'lib, u inson salomatligi, oila barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va jinoiy holatlarning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Giyohvandlik va unga qarshi kurash muammosi faqat O'zbekiston Respublikasi uchungina xos bo'lmay, balki butun jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan global muammolardan biridir. Uning dolzarbligi va murakkabligi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Avvalo, giyohvandlik vositalari savdosi turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar faoliyatini moliyaviy ta'minlashning asosiy manbalaridan biriga aylanib ulgurgan. Narkobiznes orqali qo'lga kiritilgan katta mablag'lar noqonuniy faoliyatlarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Bu holat esa xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'diradi.

Ikkinchidan, giyohvandlik ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U oilalarning buzilishiga, ishsizlik darajasining oshishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga sabab bo'ladi. Giyohvandlikka mubtalo bo'lgan shaxs nafaqat o'z salomatligiga, balki atrofidagi insonlarning tinchligi va farovonligiga ham zarar yetkazadi.

Uchinchidan, giyohvandlik jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi muhim kriminogen omil hisoblanadi. Narkotik vositalarni qo'lga kiritish yoki tarqatish maqsadida sodir etiladigan o'g'rilik, bosqinchilik, firibgarlik kabi jinoyatlar soni ortib bormoqda.

To‘rtinchidan esa, eng achinarlisi, giyohvandlikning yoshlar orasida tez sur’atlarda tarqalayotganidir. Yosh avlodning bunday illat domiga tushib qolishi millat kelajagi uchun o‘ta xavflidir

Sobiq sovet davrida giyohvandlik muammosi ko‘pincha sun’iy ravishda kamaytirib ko‘rsatilgan, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy oqibatlariga yetarli darajada baho berilmagan. Natijada muammo yashirin shaklda rivojlanib borgan. Mustaqillik yillarida esa mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XIX bobi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog‘liq jinoyatlarga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur sohadagi huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek, 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, fuqarolar sog‘lig‘ini muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Giyohvandlikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘rni beqiyosdir. Bu borada ilk xalqaro huquqiy hujjat 1912-yilda Gaaga shahrida qabul qilingan. Keyinchalik 1961-yilda Birlashtirilgan Millatlar Tashkiloti tomonidan **“Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”**gi Yagona konvensiya, 1971-yilda esa **“Psixotrop moddalar to‘g‘risida”**gi konvensiya qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilish xalqaro jinoyat sifatida e’tirof etilib, ularga qarshi qat’iy choralar ko‘rish zarurligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining geosiyosiy joylashuvi ham mazkur muammoning dolzarbligini oshiradi. Markaziy Osiyo mintaqasi jahon transport va kommunikatsiya yo‘llari kesishgan hududda joylashgani sababli ayrim xalqaro jinoiy guruhlar uchun qulay tranzit makon bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, Afg‘onistondagi beqaror vaziyat giyohvandlik vositalari yetishtirish hajmining oshishiga olib kelmoqda. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarilgan narkotik moddalar Markaziy Osiyo orqali Rossiya va Yevropa bozorlariga yetkazilmoqda. Tranzit jarayonida esa ularning ma’lum qismi mahalliy hududlarda iste’mol qilinib, kriminogen vaziyatning yanada murakkablashuviga sabab bo‘lmoqda.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, giyohvandlikka qarshi kurash faqat jinoiy jazolar bilan cheklanib qolmasligi lozim.

Eng muhim yo‘nalish - giyohvandlikni iste’mol qilishga olib keluvchi sabablarni bartaraf etishdir. Bu borada aholining huquqiy ongini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni sport va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga keng jalb etish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarida muntazam profilaktik suhbatlar, treninglar va maxsus dasturlarni yo‘lga qo‘yish ham samarali natija beradi. Shuningdek, quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur: birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish; ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida doimiy targ‘ibot ishlarini olib boorish. uchinchidan, mahalla va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini ushbu jarayonga faol jalb etish; to‘rtinchidan, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan axborot almashuvini kuchaytirish va qo‘shma tadbirlarni amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, giyohvandlikka qarshi kurash faqat davlat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasidagi vazifa emas. Bu — butun jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Faqatgina hamjihatlik, o‘zaro hamkorlik va izchil harakatlar orqaligina ushbu xavfli illatga qarshi samarali kurash olib borish va sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin.

TALABALARDA IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETUVCHI METODIKALAR TAHLILI

Xursanova Lobar Ergashovna,
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti. Ilmiy rahbar: p.f.d. Arziqulov D.N.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasidagi talabalarning irodaviy sifatlariga qanday psixologik xususiyatlar ta'sir etishi va bu xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan metodikalar nazariy va amaliy tahlili jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotlar uchun kerakli bo'lgan metodikalarlar saralanib qo'llanishi uchun tavsiyalar keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: irodaviy sifatlari, ekstensiv usul, eksperimental usul, R.D.Duffy, X.Roraxer, Frayburg shaxs so'rovnomasi, "Intilishlar darajasi", "Psixologik profillar", Muammolarini hal qilish" so'rovnomasi.

Kirish. Ma'lumki, turli soha vakillarining irodaviy sifatlarini, ularning ixtiyoriy xatti-harakatlari va hissiy kechinmalarini psixologik jihatdan o'rganish, ijtimoiy sohalarda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan, o'ta muhim ishlar turkumidan biri hisoblanadi. Zero, talabalarning mas'uliyatli o'quv faoliyatida, bu masalalar yanada dolzarb hisoblanadi. Ya'ni, hozirgi kun talabalari nafaqat kasbiy tayyorgarlikka balki, shaxs sifatida shakllangan, ijtimoiy qobiliyatga ega shuningdek, murakkab vaziyatlarda muvaffaqqiyatli faoliyat olib borishni ta'minlovchi, ko'plab irodaviy sifatlarga ega bo'lmog'i davr talabidir.

Adabiyotlar tahlili: AQSh tadqiqotchisi R.D.Duffyning yozishicha, shaxs irodaviy sohasini o'rganishning mohiyati aniqlash, psixologik tushunchalar tizimi, irodani

psixodiagnostik usullari kabi masalalar bo‘yicha yakdil qarashlar, yoki bitta konsesiyaning yo‘qligi bu borada katta muammolarni keltirib chiqaradi[1].

Amerikalik olim X.Roraxer irodaviy sifatlarni o‘rganuvchi psixodiagnostik vositalarning dastlabki tasnifini quyidagicha keltiradi[2]:

– reaksiya metodlari;

– tanlov metodlari;

– yuqori darajadagi samaradorlik metodlari;

– norozilikni qabul qilish metodlari va boshqalar.

Ushbu tasnifni irodani o‘rganish usullarining birinchisi deb hisoblash mumkin: ushbu metodlarda irodaviy jarayonlarni qo‘zg‘atuvchi vositalar mavjud bo‘lsada, ularni ro‘yxatga olish vositalari mavjud bo‘lmagan. Shu boisdan, ushbu davrning asosiy natijasi eksperimental usullarni ob’ektivlashtirish tendensiyasi deb hisoblash mumkin.

A.A.Krilova va S.A.Manichevaning “Eksperimental va amaliy psixologiya” darsligida keltirilishicha, ko‘pgina mualliflar irodani o‘rganish usullarining tasniflarini taqdim etishga harakat qilishgan (Shingaev, 2001; Pasnichenko, 1995 va boshqalar). Irodaviy sifatlarni psixodiagnostik tasniflashning umume’tirof etilgan tamoyillarining yo‘qligi irodaviy xususiyatlar va sifatlarning muallifning nazariy pozitsiyalariga va materialni taqdim etish vazifalariga qarab tahlil qilingan[3].

E.P.Ilin o‘z izlanishlarida irodaviy sifatlarni psixodiagnostik o‘rganishni ekstensiv va eksperimental usullarga ajratadi. E.P.Ilinning aytishicha, ekstensiv usullar sub’ektning tabiiy sharoitdagi xatti-harakatlarini kuzatish, shaxsning xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularga baho berish, shuningdek, suhbatlar, so‘rovlarga asoslanadi. Muallif eksperimental usullarni tabiiy va laboratoriya tajribalarga ajratgan holda ularning afzallik va kamchiliklarini e’tirof etadi. Tabiiy eksperimentning kamchiliklari “ixtiyoriy jarayonning intim mikrotuzilmasi va dinamikasiga” kirishning murakkabligi va laboratoriya tajribasi

1Duffy R. D. Work volition and job satisfaction: Examining the role of work meaning and person–environment fit //The Career Development Quarterly. – 2015. – Т. 63. – №. 2. – С. 126-140.
2 Oettingen G., Gollwitzer P. M. Volition //Handbook of educational psychology. – Routledge, 2015. – С. 118-132.
3 Крылова А. А., Маничева С. А. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии СПб. , 2000. – С. 107.

yordamida olingan natijalar “har doim ham sub’ektning shaxs sifatida irodaviy xususiyatlarini tavsiflay olmasligi bilan harakterlanadi[4].

Rus tadqiqotchisi S.M.Shingaev irodaviy sifatlarni psixodiagnostik o‘rganish bo‘yicha quyidagi tasnifini taklif qiladi[5]:

– vosita darajasida - ixtiyoriy harakatni o‘lchash;

– intellektual darajada - hal qilib bo‘lmaydigan vazifalar;

– xulq-atvor darajasida, anketalar. Yuqorida tavsif etilgan usullar ham tanqidiy fikrlardan xoli emas, balki iroda namoyon bo‘lishini aniqlash uchun, intellektual testlardan foydalanish, irodaviy va intellektual ko‘rsatkichlarni farqlashni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Yu.Yu.Palaima, F.Xoppe va E.A.Serebryakovalar “Intilishlar darajasi”ni o‘rganish so‘rovnomasi orqali shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasini tekshiradi[6]. E.P.Ilin jasorat, qat’iyat, sabr-toqat kabi irodaviy fazilatlar asab jarayonlarining kuchi, harakatchanligi va muvozanati bilan bog‘liq ekanligidan kelib chiqqan holda, ekspress usullarni ishlab chiqadi (tepping testi va kinematometrik usullar)[7]. N.B.Stambulova maqsadlilik, qat’iyatlilik, jasorat, tashabbuskorlik, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish kabi irodaviy fazilatlarning rivojlanishini baholash uchun har biri 20 ta ta’kiddan va beshta blokdan iborat so‘rovnomani taklif qiladi[8].

O.Semenev esa, irodaviy faoliyatni o‘rganishga kompleks yondashuv masalasini qo‘yib, ikki darajali tizimni taklif qiladi. Tabiiy sharoitda irodani o‘rganish mustaqil xususiyatlarni umumlashtirish, o‘zaro baholash, o‘z-o‘zini kuzatish, ixtiyoriy harakatlarni tahlil qilish, vaziyatlarni aqliy ravishda tahlil qilish kabi usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak. Laboratoriya sharoitida ushbu maqsadlar uchun chidamlilikni, da’volar darajasiga qarab irodaviy faoliyatni, faoliyatdagi muvaffaqiyatlar va

4 Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2009. – С. 206.
5 Шингаев, С. М. Психодиагностика и формирование волевых качеств курсантов высшего военно-учебного заведения [Текст] : дис. … канд. псх. наук / С. М. Шингаев. – СПб. , 2001. – С. 7677.
6Батыршина А.Р. "Проблемы психодиагностики волевой сферы личности" Ярославский педагогический вестник, vol. 2, no. 2, 2010, – С. 186.
7Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2009. – С. 231.
8 Stambulova N. B., Ronkainen N. J. The work of cultural transition: An emerging model //Frontiers in Psychology. – 2016. – Т. 7. – С. 427.

muvaffaqiyatsizliklarni, aqliy mehnatdagi ixtiyoriy faoliyatni, shuningdek sinov usullarini o‘rganishga imkon beradigan maxsus ishlab chiqilgan asboblar majmualaridan (Riddil moslamasi, ergografik usul, oksigemometr) foydalanish kerak[9]. Bu usullar ayniqsa, harbiy xizmatchilarni kasbiy saralashda, kasbga moslilik darajalarini tekshirishda foydalanish mumkin.

Shaxs irodaviy sifatlarini, shaxsning boshqa xususiyatlari majmuasi bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan o‘lchaydigan usullar ham mavjud bo‘lib, bunday diagnostika vositalariga misol sifatida, N.S.Glyuxanyuk tomonidan taklif etilgan quyidagi usullar tasnifini keltirib o‘tish mumkin[10]:

– Frayburg shaxs so‘rovnomasi (o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘lchaydigan omillarni o‘z ichiga oladi);

– Kaliforniya psixologik so‘rovi (tashabbus, o‘ziga ishonch, mas’uliyat, o‘z-o‘zini boshqarishni aniqlash imkonini beradi);

– Rossolimoning “Psixologik profillar” (test topshiriqlari bir guruhi “Iroda” deb ataladi va avtomatizm va takliflarga qarshilik ko‘rsatish shkalalarini o‘z ichiga oladi);

– P.Xeppner va K.Petersenning “Muammolarini hal qilish” so‘rovnomasi (muammolarni hal qilishda ishonchni o‘rganadi, muammolarni hal qilishdan qochish va o‘z-o‘zini nazorat qiladi);

– E.Kudlikova shaxsni o‘rganish so‘rovnomasi (qat’iyatlilik, impulsivlik, o‘zini tuta bilish, mustaqillik haqida ma’lumot olish imkonini beradi);

– MMPI so‘rovnomasi (tartibsiz ta’sirlarga nisbatan qaramlik, ixtiyoriy nazorat va shaxs barqarorligi shkalasi yordamida shaxsning ixtiyoriy xususiyatlarini o‘lchash mumkin) va boshqalar.

Zamonaviy psixologiyada irodaviy sifatlarni tekshirish uchun psixologik vositalarni ishlab chiqishda, asosan, shaxsning qiymat-semantik sohasini o‘rganadigan usullarga e’tibor berilmoqda V.A.Ivannikov irodaviy sifatlar mazmunini aniqlashda semantik differensial metoddan foydalanishni, shaxsning irodaviy xususiyatlarini tavsiflovchi

9Semenov O. et al. Empirical research of the development of the emotional and volitional spheres of older preschool children //Amazonia Investiga. – 2021. – Т. 10. – №. 48. – С. 228-237.
10Глуханюк Н.С. Психодиагностика: Учебник / Н.С. Глуханюк. - М.: Академия, 2018. – 272 с.

sifatlarini individual idrok etishni o‘rganishni, ongning ushbu irodaviy sifatlar haqidagi g‘oyalarini qayta qurishni taklif qiladi[11].

Mazkur tadqiqot ishimiz uchun to‘rtta psixodiagnostik usul: T.Elersning muvaffaqiyatga erishish motivasiyasini tashxis qilish metodikasi, M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy-mas’uliyat sifatlarini o‘rganish” metodikasi, N.N.Obozovning “Iroda kuchini baxolash” metodikasi va N.Raydasning “O‘ziga ishonch” metodikalari tanlab olingan. Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllanishini psixodiagnostik tekshirishga doir yondashuvlar va vositalarni hisobga olgan holda, tadqiqot ishida qo‘llanilgan metodikalarning quyida tavsifi berilgan:

Elersning muvaffaqiyatga erishish motivasiyasini tashxis qilish metodikasi

T.Elersning muvaffaqiyatga erishish motivasiyasini diagnostika qilish so‘rovnomasi, muvaffaqiyatga erishishda shaxs imkoniyatlarini tekshirishga mo‘ljallangan. Muvaffaqiyat motivasiyasini aniqlash uchun shaxsga tashxis qo‘yishda T.Elers quyidagi pozisiyaga asoslanadi: muvaffaqiyat motivasiyasi ustun bo‘lgan odam o‘rtacha yoki past darajadagi xavfni afzal ko‘radi. U yuqori xavfdan qochishga intiladi. Muvaffaqiyat uchun kuchli motivasiya bilan, muvaffaqiyatga bo‘lgan umidlar uni harakatga keltiradi. Yo‘riqnoma. Sinaluvchilarga mazkur metodika savollari o‘qiladi va keltirilgan jadvalga ularning javoblari tegishli ustunga kiritiladi (Metodika bilan yaxshilab tanishib chiqing!) Savollarga talaba birinchi jadvalda, ya’ni muvaffaqiyatga erishish motivasiyasini tashxis qilishda faqat xa yoki yo‘q deb javob berishi lozim bo‘lib, bunda – ha javobi (+), yo‘q javobi esa (-) belgilari bilan tagishli qatorga yoziladi. Ikkinchi jadvalda esa, ya’ni mag‘lubiyatdan qochish motivasiyasini aniqlashda har bir qatordagi 3 ta so‘zdan talaba o‘ziga yaqin bo‘lganini va xarakteriga mos keladigan bitta so‘zni tanlashi va shu so‘z nomeri – 1, 2 yoki 3 soni tegishli qatorga yoziladi.

M.V.Chumakovning “Shaxsning irodaviy-mas’uliyat sifatlarini o‘rganish” metodikasi.

11Иванников, В. А. Структура волевых качеств по данным самооценки [Текст] / В. А. Иван ников, Е. В. Эйдман // Психологический журнал. – 1990. – № 3. – С. 39–49.

“Shaxsning irodaviymas’uliyat sifatlarini baholash” metodikasi 18 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslarning irodaviy xususiyatlarini diagnostika qilish uchun mo‘ljallangan. U tadqiqot maqsadlarida ham, amaliy muammolarni hal qilishda ham qo‘llanilishi mumkin. Metodika 9 ta shkaladan iborat bo‘liq quyida qisqacha tavsifi keltirib o‘tiladi:

1. Mas’uliyat shkalasi. Yuqori: ular intizomli bo‘lib, o‘z vazifalarini sidqidildan bajaradilar. Past: ishonchsiz va ma’lum darajada "tartibsiz" deb atash mumkin bo‘lgan insonlarga beriladi. Ular o‘zlariga ortiqcha majburiyatlarni yuklamaydilar, hayotga nisbatan soddaroq qarashga ega va tashvish darajasi pastroq bo‘lishi mumkin.

2. Tashabbus shkalasi. Yuqori: etakchilikka moyilligi yuqori bo‘lgan tashabbuskor, faol odamlarga xosdir. Ular har qanday ishda “qo‘zg‘atuvchilar” sifatida harakat qilishadi, ular nimanidir o‘zgartirishga intilishadi. Ular o‘zgarishlar zarur bo‘lgan va innovasion yondashuvlar talab qilinadigan vaziyatlarda yaxshi ishlaydi. Past: ular hech narsani o‘zgartirishga moyil emaslar. Ular etakchilikka intilmaydilar. Barqarorlikni saqlash kabi o‘zgarishlarni talab qilmaydi.

3. Hal qiluvchi shkala. Yuqori: tez va ishonchli qaror qabul qiladigan odamlarga xosdir. Ular uzoq muddatli shubhalarga, rejalarini amalga oshirishda ikkilanishga moyil emaslar. Ba’zida qaror qabul qilish tezligi impulsivlik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Past: qat’iyatsiz, ishonchsiz, doimiy shubhalarga moyil bo‘lganlar. Qabul qilingan qarorlar ham uzoq tebranishlardan so‘ng qabul qilinadi va etarli barqarorlikka ega emas.

4. Mustaqillik shkalasi. Yuqori: psixologik yordamga muhtoj bo‘lmagan, mustaqil ravishda qaror qabul qilishga intiladigan, guruh fikridan farq qiladigan bo‘lsa, unga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatiga ega odamlar. Past: mustaqillikning pastligini, taklif qilish qobiliyatini, guruh fikriga bog‘lanib qolganlikni ko‘rsatadi.

5. Bardoshlilik shkalasi. Yuqori: o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladigan, stressga va monoton harakatlarga dosh bera oladigan odamlarga xosdir. Past: qiziq bo‘lmagan ishlarni bajarishda qiynaladigan odamlarga xosdir. Ular o‘z-o‘zini nazorat qila olmaydilar va ularni ushlab turish qiyin.

6. Qat’iylik shkalasi. Yuqori: maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni engib o‘tishga qodir bo‘lgan qat’iyatli insonlar. Muvaffaqiyatsizliklar bunday odamlarni bezovta qilmaydi. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun qayta-qayta urinishlarni takrorlashlari mumkin. Past: yumshoq odamlarga xosdir. Muvaffaqiyatsizliklar ularni ruhiy tushkunlikka soladi va to‘siqlar ko‘pincha ularni rejalaridan voz kechishga majbur qiladi.

7. Energiyalilik shkalasi. Yuqori: faollikni, kuchni ko‘rsatadi. Bunday odamlar faol, samarali, hayotga optimistik qarashadi. Past: ular tezda charchashadi. Ular voqea va hodisalarga nisbatan optimist emas.

8. Ehtiyotkorlik shkalasi. Yuqori: diqqatni ixtiyoriy jamlashga qodir insonlar. Faoliyat ularni haqiqatda qiziqtirmasa ham, agar kerak bo‘lsa, ular uni barqaror ushlab turadilar. Ular xotirjamlik, ishga chuqur kirishishi bilan ajralib turadi. Past: ular osongina chalg‘ishadi, agar faoliyat ular uchun unchalik qiziq bo‘lmasa, diqqatni jamlash qiyin.

9. Maqsadlilik shkalasi. Yuqori: ular hayotda yaxshi maqsadlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ular o‘z vaqtlarini va ishlarni bajarish tartibini rejalashtirishga moyildirlar. Past: maqsadlarning ravshanligi va ularga erishishda qat’iyatlilik yo‘qligini ko‘rsatadi. Bunday odamlar har doim ham nimani xohlashlarini yaxshi tushunmaydilar. O‘z ishlarini rejalashtirish zarur bo‘lgan holatlarda ular uchun qiyin bo‘lishi mumkin.

Yo‘riqnoma. Har bir hukmni diqqat bilan o‘qing. Bu hukm sizga qanday xos ekanligini anglab etishingiz lozim. Shunga asoslanib, berilgan har bir savolga “Ha” va “Yo‘q” javoblar bilan belgilanadi. Esda tutingki, so‘rovda “yomon” va “yaxshi” javoblar yo‘q, chunki bu sizning qobiliyatingiz haqida emas, balki sizning shaxsiy xususiyatlaringiz haqida.

«Iroda kuchini baxolash» testi

Test N.N.Obozov tomonidan 1997 yili ishlab chiqilgan va Iroda kuchi namoyon bo‘lishining umumiy tavsifnomasini urganish uchun tavsiya qilingan.

Yo‘riqnoma**:**

Keltirilgan 15 ta savollarga shunday javob berish mumkin: «xa», «bilmayman» yoqi «bo‘lishi mumkin», «bo‘lib turadi» va «yuk». Agar siz qo‘yidagicha javob bersangiz:

- «ha» unda bunga- 2 ball quyiladi;

- «bilmayman» yoqi «bo‘lib turadi», «bo‘lishi mumkin»- 1 ball;
- «yo‘q»- 0 ball

1dan 15chi savolgacha davomli javoblarda olingan ballarini umumlashtirish zarur.

Natijalarni kayta ishlash va muvofiqlashtirish

Olingan ballarning umumiy yig‘indisi hisoblab chiqiladi. Agarda u quyidagicha chegarada joylashsa:

- 0dan 12 ballgacha –sizning irodangiz kuchsiz. Sizni osongina ishontirish mumkin. Ammo, o‘zining «ojiz joylarini» bilish insonni yanada kuchliroq qiladi. O‘zingizning irodaviy boshqarishingizni takomillashtirib, o‘zingiz ustingizda ishlang.
- 13dan 21 ballgacha-sizda iroda kuchi o‘rtacha. Siz har xil holatlarda turlicha harakat qilasiz, ayrim hollarda yon berishni, ayrim hollarda esa qa’tiyatlilik va sabr-bardoshlilikni namoyon qilasiz.

Aynan bu holat har xillikda sizning muloqotda va ishdagi yoqimliligingiz ko‘rinadi.

- 22dan 30 ballgacha-sizda iroda kuchi yuqori. Siz irodali odamsiz. Lekin, esingizda bo‘lsin siz yolg‘iz emassiz, yon berishlar, kelishishlar va o‘zaro munosabatlar ham muloqotda va ishda muvaffaqiyatlarga olib keladi.

N.Raydasning ‘’O’ziga ishonch testi’’

Yo‘riqnoma: Sizga xulq-atvorning 30ta har-xil namunalari taqdim etilgan. Iltimos, ushbu xulq-atvor sizga to‘g‘ri kelish yoki kelmasligini quyida keltirilgan mezon asosida belgilang.

“5”- ha, albatta, bu menga to‘g‘ri keladi;

“4”- bu menga to‘g‘ri kelsa kerak;

“3”- bilmadim, javob berishga qiynalyapman;

“2”- unchalik to‘g‘ri kelmasa kerak;

“1”- yo‘q, bu menga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Kalit**:**

1. 3, 5, 6, 7, 8, 10, 18, 20, 21, 22, 25, 27, 28, 29 savollar bo‘yicha olingan ballar yig‘indisi hisoblanib, natijasiga 72 soni qo‘shiladi.

2. 1, 2, 4, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 19, 23, 24, 26, 30 savollar bo‘yicha olingan natija birinchi natijadan ayiriladi.

Natijani tahlil qilish:

0-24 ball – o‘zlariga mutlaqo ishonmaydilar. Har bir xatti-harakatlarini o‘ylab qiladilar. Faqat boshqa insonlarning buyurgan ishlarini bajaradilar. Bunday insonlar hatto o‘z soyalaridan ham qo‘rqadilar.

25-48 ball – o‘ziga ishonchidan ko‘ra ishonchsizlik kuchliroq. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o‘zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o‘zgalarning rag‘batiga ehtiyoj sezadilar.

49-72 ball – o‘ziga ishonch darajasi o‘rtacha. Bunday insonlar o‘zlariga ishonadilar va boshqalarning ularga to‘g‘ri ish qilayotganlarini uqtirish shart emas.

73-96 ball – o‘ziga ishonadi. Ular har doim to‘g‘ri ish qilayapman, deb o‘ylaydilar. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

97-120 ball – o‘ziga bino qo‘ygan. Odatda bunday kishilar xudbin va mag‘rur bo‘ladilar. Chunki ular o‘zlarini har doim haq deb o‘ylaydilar. Hech bir inson ularni nohaq ekanliklariga ishontira olmaydilar.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, ushbu paragraf yuzasidan quyidagini xulosa qilish mumkin, irodaviy sifatlar psixologik kategoriya sifatida keng qamrovli tushunchalar bo‘lib, uni o‘rganishning umumiy muammolari turli xil munosabatlar bilan tavsiflishi lozim. Tahlil qilingan mavjud psixodiagnostik vositalar shaxs irodaviy sohasini yaxlit o‘rganmaydi, balki aniq eksperimental sharoitlarda irodaviy faoliyatning alohida ko‘rinishlari bilan bog‘liq natijalarni namoyon qiladi. talabalarda irodaviy sifatlarni tashxis qilish ham ularning ham o‘qish faoliyati va individual xususiyatlarini tadqiq etish bilan xarakterlanib, uni amaliy jihatdan baholash nafaqat boshqa shaxslilik sifatlari bilan, balki metodika va shaxs so‘rovnomalari o‘rtasidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlashga hamda talabalarga tegishli irodaviy sifatlar va uning zamonaviy modeli kabilarni ham ishlab chiqishga keng xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duffy R. D. Work volition and job satisfaction: Examining the role of work meaning and person–environment fit //The Career Development Quarterly. – 2015. – Т. 63. – №. 2. – С. 126-140.
2. Oettingen G., Gollwitzer P. M. Volition //Handbook of educational psychology. – Routledge, 2015. – С. 118-132.
3. Крылова А. А., Маничева С. А. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии СПб. , 2000. – С. 107.
4. Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2009. – С. 206.
5. Шингаев, С. М. Психодиагностика и формирование волевых качеств курсантов высшего военно-учебного заведения [Текст] : дис. … канд. псх. наук / С. М. Шингаев. – СПб. , 2001. – С. 7677.
6. Батыршина А.Р. "Проблемы психодиагностики волевой сферы личности" Ярославский педагогический вестник, vol. 2, no. 2, 2010, – С. 186.
7. Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2009. – С. 231.
8. Stambulova N. B., Ronkainen N. J. The work of cultural transition: An emerging model //Frontiers in Psychology. – 2016. – Т. 7. – С. 427.
9. Semenov O. et al. Empirical research of the development of the emotional and volitional spheres of older preschool children //Amazonia Investiga. – 2021. – Т. 10. – №. 48. – С. 228-237.
10. Глуханюк Н.С. Психодиагностика: Учебник / Н.С. Глуханюк. - М.: Академия, 2018. – 272 с.
11. Иванников, В. А. Структура волевых качеств по данным самооценки [Текст] / В. А. Иван ников, Е. В. Эйдман // Психологический журнал. – 1990. – № 3. – С. 39–49

CLADOSPORIUM ZAMBURUG‘INING RIVOJLANISHI VA UNING ALLERGENLIK XUSUSIYATI

Mamatova Bahora Shokir qizi, Turon universiteti magistranti

Kattaboyeva Gulnoza Safarovna, Qarshi davlat universiteti Botanika kafedrasi, ORCID: 0009-0009-5511-2222, kattaboyevagulnoz@gmail.com

+998904283008

Annotatsiya

Maqolada *Cladosporium* zamburug‘ining morflogiyasi, tarqalishi va allergenlik xususiyati, shuningdek, Qarshi vohasi sharoitida mavsumiy rivojlanishini o‘rganish natijalari keltirilgan. *Cladosporium* zamburug‘i ekologik jihatdan juda plastik va keng tarqalgan anamorfik organizm bo‘lib, asosan aseksual reproduksiya qilib kondiyalar orqali tarqalib, hayot siklini davom ettiradi. Koloniyalari sun’iy muhitlarda zaytun-qo‘ng‘ir, baxmalsimon yoki paxtasimon ko‘rinishda o‘sadi, gifalari shoxlangan va qavatli strukturaga ega. Qarshi vohasi sharoitida *Cladosporium* turlari mezofillikni namoyon etib, harorat va namlikka bog‘liq ravishda yil davomida faollik ko‘rsatadi. Bahor va kuz oylarida ayniqsa faol rivojlanadi. Inson uchun asosiy xavf – aerozol sporalari orqali tarqalganligi sababli u aerobiologik kuzatish va allergenlarni aniqlash uchun muhim tadqiqot obekti bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: aerozol, *Cladosporium,* gifa, konidiya, mitseliy, mezofil, spora

Аннотация

В статье представлены результаты исследования морфологии, распространения и аллергенности гриба рода *Cladosporium*, а также его сезонного развития в условиях оазиса Карши. Гриб *Cladosporium* — это экологически очень пластичный и широко распространенный анаморфный организм, размножающийся преимущественно бесполым путем, распространяясь конидиями, и продолжающий свой жизненный цикл. Его колонии в искусственных условиях имеют оливково-коричневый, бархатистый или хлопковидный вид, а гифы — разветвленную и слоистую структуру. В условиях оазиса Карши виды *Cladosporium* проявляют мезофилию и активны в течение всего года, в зависимости от температуры и влажности. Особенно активно развиваются в весенние и осенние месяцы. Поскольку основная опасность для человека распространяется через аэрозольные споры, он является важным

объектом исследования для аэробиологического наблюдения и идентификации аллергенов.

Ключевые слова: аэрозол, *Cladosporium*, гифы, конидии, мицелий, мезофиль, спора

Abstract

This article presents the results of a study of the morphology, distribution, and allergenicity of a fungus of the genus *Cladosporium*, as well as its seasonal development in the Karshi oasis. *Cladosporium* is an ecologically highly flexible and widespread anamorphic organism that reproduces primarily asexually, spreading by conidia and continuing its life cycle. Its colonies in artificial conditions have an olive-brown, velvety, or cottony appearance, and the hyphae have a branched and layered structure. In the Karshi oasis, *Cladosporium* species exhibit mesophily and are active throughout the year, depending on temperature and humidity. They develop especially actively in the spring and autumn months. Since the primary hazard to humans is spread through aerosolized spores, it is an important research target for aerobiological monitoring and allergen identification.

Keywords: aerosol, *Cladosporium*, hyphae, conidia, mycelium, mesophile, spore

Kirish. *Cladosporium* – Deuteromycetes guruhiga mansub bo‘lib, anamorf askomitset hisoblanadi. Melanin pigmentiga ega mikroskopik zamburug‘lar turkumiga kiradi.

Tabiatda juda keng tarqalgan. Har xil iqlim sharoitlarida uchraydi. U tuproqda, o‘simlik qoldiqlari, daraxt barglari, havo aerozollari, ochiq suv havzalarida ko‘p. U atmosfera mikobiotasining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Sporalari atmosfera havosida boshqa zamburug‘ spolalariga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Hayoti saprotrof tarzda kechadi. O‘simliklarda patogenlik qiladigan turlari ham mavjud. Sporalari insonga allergen sifatida ta’sir ko‘rsatadi.

Hujayra devorida melanin pigmenti mavjudligi sabab gifalarining rangi qo‘ng‘ir tusda bo‘ladi. Melanin pigmenti amburug‘ni tashqi muhitning noqulay omillari (ultrabinafsha nurlanish, qurish, harorat o‘zgarishi)dan muhofaza qiladi (1).

Ishning metodikasi. Tadqiqot uchun Scladosporium spp.ning muhitdan

izolyatsiya qilingan shtammlaridan foydalanildi. Shtammlar Potato Dextrose Agar (PDA) substratida 20-25°C sharoitida 7-14 kun davomida inkubatsiya qilindi. Shtammlar steril sharoitda o‘stirildi. Koloniyaning tuzilishi har 2-3 kunda qayd etildi. Makroskopik kuzatishlar turlarni identifikatsiya qilish va morfologiyasini baholashda asosiy ma’lumot sifatida qo‘llanildi. Koloniyadan kichik parcha olinib, preparat tayyorlandi va 400× kattalikdagi obyektivda tahlil qilindi. Konidiya shakli, konidioforlar o‘lchami, sporaarining rivojlanish bosqichlari qayd etildi.

Natija va muhokama. Cladosporium gifalarining diametri 2-5 mkm, devori mustahkam. Koloniyalari sun’iy oziq muhitlarda zaytunsimon-qo‘ng‘ir, baxmalsimon yoki paxtasimon ko‘rinishda o‘sadi. Anamorfik zamburug‘ hisoblanib, asosan jinsiy bo‘lmagan ko‘payish usuli orqali tarqaladi. Uning asosiy reproduktiv elementlari – konidiyalaridir.

Kondioforlari shoxlangan, septali, qo‘ng‘ir rangli, terminal yoki interkalyar joylashgan. Kondiofor uchlarida ellipssimon shakldagi 3-10 mkm li kondiyalar zanjirsimon joylashagan bo‘lib, ular yengilgina g‘adir-budir yuzaga ega. Ularning shoxlangan holatda bo‘lishi *Cladosporium* uchun xos diagnostik belgi hisoblanadi (2).

*Cladosporium*ning fermentativ faoliyati yuqori bo‘lib, sellyuloza, lignin va boshqa murakkab organik birikmalarni parchalay oladi. Zamburug‘ tashqi muhitga fermentlar ajratib, substratni ekzofermentativ yo‘l bilan parchalaydi va hosil bo‘lgan oddiy molekulalarni so‘rib oladi. Bu xususiyat uni tuproqdagi organik qoldiqlarni minerallashtirish jarayonida muhim ishtirokchiga aylantiradi (3).

Qarshi vohasi sharoitida *Cladosporium*ning mavsumiy rivojlanishini o‘rganish natijasida uning mezofil guruhga kirishi aniqlandi. Optimal harorat 18-28°C atrofida bo‘lgan aprel-may oylarida faol rivojlanishni namoyon etdi. Yozda ularning rivojlanishi ancha susayi, kuz oylarida yana rivojlanish boshlanadi. Qishning sovuq kunlarida ham havo aerozolida ularning sporalari mavjud bo‘lishi aniqlandi. Namlik yuqori bo‘lgan sharoitlarda – ya’ni yomg‘ir yog‘gandan keyingi kunlarda kondiiya hosil bo‘lishi kuchayishi kuzatildi. *Cladosporium* ekologik jihatdan juda plastik mikroorganizm

hisoblanadi. Ayrim turlari (masalan, *C. fulvum*) o‘simliklarda barg dog‘lanishi kasalligini keltirib chiqaradi. Bu tur pomidor o‘simligida keng tarqalgan fitopatogen sifatida ma’lum.

Cladosporium shartli patogen mikroorganizm hisoblanadi. U allergik rinit, bronxial astma, kam hollarda teri va tirnoq infeksiyalarini chaqirishi mumkin. Uning kondiiyalari havo orqali inson nafas yo‘llariga tushib, allergik reaksiyalarni rivojlantirishi mumkin (4).

Cladosporium hayot sikli asosan anamorf bosqichdan iborat. Yetilgan kondiiyalar shamol orqali tarqaladi. Ular yengil va qurishga chidamli bo‘lib, atmosferada uzoq vaqt saqlanishi mumkin. Yetarli namlik va harorat sharoitida kondiya substratga tushgach shishadi, unish naychasini hosil qiladi, birlamchi gifa shakllanadi, gifalar shoxlanib, substratni qamrab oladi va vegetativ mitseliy hosil qiladi. Oziqa moddalar yetarli bo‘lganda kondioforlar shakllanadi. Kondiofor uchlarida zanjirsimon kondiiyalar hosil bo‘ladi va sikl yana takrorlanadi.

Cladosporium zamburug‘i inson sog‘lig‘iga asosan aerozolda tarqaluvchi sporalari orqali ta’sir etadi. Bu sporalar kichik o‘lchami (3-35 мкм) tufayli nafas yo‘llariga chuqur kirishi mumkin, bu nafas olish yo‘llari allergik reaktsiyalari, bronxial astma, allergik rinit va kon’yunktivitni kuchaytiradi. Bu allergenlarning moddalari inson immun tizimini stimulyatsiya qilib, IgE-mediyalangan allergik javoblarni keltirib chiqaradi. Cladosporium bilan bog‘liq asosiy salomatlik muammolari quyidagilar: allergik rinit, astma simptomlarining kuchayishi, allergik kon’yunktivit (ko‘zlar qizarishi, qichishi), allergik alveolit, sinusit va bronxit kabi yuqori va pastki nafas yo‘llari allergiyalari. *Cladosporium* allergen oqsillarini aniqlash va tavsiflash bo‘yicha biologik va molekulyar tadqiqotlar 1990-yillardan boshlangan. Dastlab, rekombinant molekulalarni klonlash va tozalash usullari yordamida allergen oqsillar identifikatsiya qilingan. Bu allergik kasallik diagnostikasini soddalashtirish imkonini bergan.

Tadqiqotlarda *Cladosporium* zamburug‘ida yangi allergen oqsil – TCTP (HRF) aniqlangan. Bu oqsil organizmdagi IgE antitelalari bilan bog‘lanadi va bazofil

hujayralardan gistamin moddasining ajralib chiqishini kuchaytiradi. Natijada allergiyaga xos belgilar (qichishish, shishish, nafas qiyinlashishi) yuzaga keladi (5).

Xulosa. *Cladosporium* zamburug‘i ekologik jihatdan juda plastik va keng tarqalgan anamorfik organizm bo‘lib, asosan aseksual reproduksiya qilib kondiyalar orqali tarqalib, hayot siklini davom ettiradi. Koloniyalari sun’iy muhitlarda zaytun-qo‘ng‘ir, baxmalsimon yoki paxtasimon ko‘rinishda o‘sadi, gifalari shoxlangan va qavatli strukturaga ega. Qarshi vohasi sharoitida *Cladosporium* turlari mezofillikni namoyon etib, harorat va namlikka bog‘liq ravishda yil davomida faollik ko‘rsatadi. Bahor va kuz oylarida faol rivojlanadi. Inson uchun asosiy xavf – aerozol sporalari orqali tarqalganligi sababli u aerobiologik kuzatish va allergenlarni aniqlash uchun muhim tadqiqot obekti bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zheng F. et al. Species diversity of Cladosporium in Citrus and the genetic mechanisms for C. cladosporioides complex to adapt broad host plants //Fungal Diversity. – 2025. – T. 133. – №. 1. – C. 1-22.

2. Bensch K. et al. The genus cladosporium //Studies in mycology. – 2012. – T. 72. – C. 1-401.

3. Domsch K. H. Compendium of soil fungi //IHW-Verlag. – 1993. – T. 1. – C. 630-643.

4. Kasprzyk I. Co-occurrence of airborne allergenic pollen grains and fungal spores in Rzeszów, Poland (2000-2002) //Acta Agrobotanica. – 2008. – T. 61. – №. 2.

5. Rid R. et al. Cladosporium herbarum translationally controlled tumor protein (TCTP) is an IgE-binding antigen and is associated with disease severity //Molecular immunology. – 2008. – T. 45. – №. 2. – C. 406-418.

QARSHI VOHASI SHAROITIDA *PYRUS COMMUNIS* DA KASALLIK QO‘ZG‘ATUVCHI MIKROMITSETLAR

Toshev Nurlan Ikrom o‘g‘li
toshevnurlan1999@gmail.com
Turon universiteti magistri
+998 99 628 99 71

Annotatsiya

Tadqiqotda *Pyrus communis*da kuzatilgan kasallik belgilari va ularning qo‘zg‘atuvchilari o‘rganildi. Namunalardan olingan mikroskopik tahlillar asosida *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena* va *Venturia pyrina* mikromitsetlari aniqlandi. Ushbu mikromitsetlar barg, novda va mevalarda turlicha patogenlik ko‘rsatishi, zararlanish darajasi 10–50% oralig‘ida bo‘lishi aniqlangan. Natijalar *P. communis* da kasalliklarning asosiy qozg‘atuvchilari va profilaktika choralarini ishlab chiqish uchun muhim axborot beradi.

Kalit so‘zlar: *Pyrus communis*, mikromitsetlar, patogenlik, *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena, Venturia pyrina*

ВОЗБУДИТЕЛИ ЗАБОЛЕВАНИЙ PYRUS COMMUNIS В УСЛОВИЯХ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация

В исследовании изучались признаки заболеваний и возбудители у *Pyrus communis*. На основе микроскопического анализа образцов были идентифицированы микромицеты: *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena* и *Venturia pyrina*. Эти микроорганизмы проявляли различную патогенность на листьях, побегах и плодах, степень поражения составляла от 10 до 50%. Полученные данные имеют практическое значение для выявления основных возбудителей заболеваний и разработки мер профилактики на *P. communis*.

Ключевые слова: *Pyrus communis*, микромицеты, патогенность, *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena, Venturia pyrina*

PATHOGENIC FUNGI OF PYRUS COMMUNIS UNDER THE CONDITIONS OF KARSHI VALLEY

Abstract

The study investigated disease symptoms and their causal agents in Pyrus communis. Microscopic analysis of samples identified the fungi Diplocarpon mespili, Monilia fructigena, and Venturia pyrina. These fungi exhibited different pathogenic effects on leaves, shoots, and fruits, with infection rates ranging from 10% to 50%. Morphological analysis revealed the characteristics of mycelium and conidia, allowing precise laboratory identification. The results provide valuable information for recognizing the main disease agents and developing preventive measures in P. communis.

Keywords: Pyrus communis, fungi, pathogenicity, Diplocarpon mespili, Monilia fructigena, Venturia pyrina

Kirish. Hozirgi vaqtda o‘simlik kasalliklarini keltirib chiqaruvchi mikroskopik zamburug‘lar – mikromitsetlar мевали дарахтларнинг o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy fitopatogen omillardan biri hisoblanadi. Mikromitsetlar o‘simliklarning turli organlarida parazitlik qilib, ularda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi va natijada o‘simlik fiziologik holatining buzilishiga hamda mahsuldorlikning pasayishiga olib keladi. Shu bois fitopatogen mikromitsetlarning tur tarkibi, tarqalishi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy fitopatologiya va mikologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi (1, 2).

Mevali daraxtlar orasida *Pyrus communis* keng tarqalgan va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklardan biri hisoblanadi. Nok turkumi vakillari turli tabiiy-iqlim sharoitlarida o‘sishi bilan birga, ko‘plab fitopatogen mikroorganizmlar, jumladan parazit mikromitsetlar ta’siriga ham uchraydi. Ayniqsa barg, poya va meva to‘qimalarida rivojlanuvchi zamburug‘lar o‘simlik to‘qimalarining zararlanishiga, fotosintez jarayonining susayishiga va o‘simlikning umumiy fiziologik holati yomonlashishiga sabab bo‘ladi (3, 4).

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi *P. communis*da kuzatiladigan kasalliklarga sabab bo‘luvchi parazit mikromitsetlarni aniqlash, ularning tur tarkibini belgilash hamda o‘simlik organlarida rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqot jarayonida kasallangan barg, novda va mevalarda rivojlangan mikroskopik zamburug‘lar mikologik tahlillar asosida o‘rganilib, ularning morfologik belgilariga ko‘ra identifikatsiya qilindi. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida olib borildi. Dala tadqiqotlari davomida *P. communis*da kasallik belgilari kuzatilib, zararlangan barg, novda va mevalardan namunalar olindi. Namunalardagi barglarda dog‘lar, mevalarda chirish va nekroz kabi belgilar mavjudligi qayd etildi. Olingan o‘simlik materiallari laboratoriya sharoitida mikologik tahlil uchun tayyorlandi. Kasallangan to‘qimalardan mikroskopik preparatlar tayyorlanib, yorug‘lik mikroskopi yordamida mikromitsetlarning morfologik belgilari – mitseliy, konidiafor va konidiyalar

tuzilishi o‘rganildi. Aniqlangan zamburug‘lar ilmiy adabiyotlar va zamburug‘larni aniqlagichlari asosida identifikatsiya qilindi.

Natijalar. Tadqiqot davomida *P. communis*da kuzatilgan kasallik belgilari asosan uch xil mikromitset: *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena* va *Venturia pyrina* ta’sirida rivojlanishi aniqlandi. Bu mikromitsetlar turli organlar va to‘qimalarda hosil qiladigan белгиларlar va patogenlik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Diplocarpon mespili – barglarda kichik, qora dog‘lar paydo qiladi. Ular ko‘pincha bargning yuqori yuzasida joylashdi. Mikroskopik tahlilda qora konidiyalar va tarmoqlangan mitseliy aniqlandi. Bu mikromitset barg to‘qimalarini zararlab, fotosintez jarayonini susaytiradi, barglarning erta to‘kilishi va umumiy o‘sish faoliyatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, kasallangan barglardagi dog‘lar suv va yog‘ingarchilik sharoitida tez tarqaladigan patogen o‘choqlar sifatida xizmat qiladi, bu esa nok o‘simligida kasallikning tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotda aniqlangan belgilar va morfologiya ilmiy adabiyotlarda tavsiflangan *Diplocarpon mespili* bilan to‘liq muvofiqligi kuzatildi.

Diplocarpon mespili mitseliyi septali va tarmoqlangan bo‘lib, asosan zararlangan barg va novdada rivojlanadi. Rangsiz, ipsimon tuzilishga ega. Barg to‘qimalari oralig‘ida keng tarqaladi, barg yuzasida lokal dog‘lar hosil qiladi. Konidiyalar silindrik shaklda va septali bo‘lib, konidiaforlar orqali hosil bo‘ladi. Uzunligi 10-20 mkm, kengligi 4-6 mkm atrofida. Konidiyalar ko‘pincha tarmoqlangan bo‘ladi. Uning tuzilishi mitseliy bilan birgalikda barg to‘qimasida infeksiya hududini kengaytirishga yordam beradi.

Diplocarpon mespili ҳосил қилган қора доғлар умумий барг майдонининг 15-30% ни эгаллаганлиги кузатилди. Айрим туплардагина баргларнинг 40% гача зарарлангани қайд этилди.

Monilia fructigena – bu fitopatogen mikromitset asosan mevalarda patogenlik qiladi. Tekshirishlar davomida nokning mevalarida chirish va quruq nekroz holatsalari qayd etildi. Mikroskopik tahlilda konidiyalar silindrik shaklda, konidiaforlar septali va ko‘payish xususiyatiga ega ekani aniqlandi. Monilia fructigena ta’sirida mevalarda paydo

bo‘lgan nekroz va chirish jarayoni mevalarni saqlanish muddatini sezilarli pasaytirib, hosil sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Monilia fructigena mitseliyi septali va tarmoqlangan bo‘lib, asosan zararlangan mevalar va novda to‘qimalarida rivojlanadi. Mitseliy odatda rangsizdan ochiq bo‘lgan уорқинroq rangga ega, ipcham tuzilган. O‘simlik to‘qimalari orasida mitseliy tez tarqalib, infeksiya hududini kengaytirish xususiyatiga ega. Kasallangan mevalarda mitseliy orqali to‘qimadagi hujayralarning degradatsiyasi va nekroz jarayoni boshlanadi, bu hosilning saqlanishini sezilarli pasaytiradi. Konidiyalar silindrik yoki yumaloq silindrik shaklda, septali va konidiaforlarga bog‘langan holda hosil bo‘ladi. Uzunligi 15-30 mkm, kengligi 5-8 mkm atrofida bo‘lib, ko‘pincha oziq moddalar va suv sirtida tez ko‘payadi. Konidiyalar odatda epidermisga bog‘lanadi va havo, suv yoki mexanik ta’sir orqali tarqaladi. Ular bir necha konidiyalarning тармоқланган shaklida rivojlanади, bu esa infeksiyaning tez va keng tarqalishini ta’minlaydi. Bu mikromitset bilan mevalarning zararlanish darajasi o‘rtacha 20-35% ni tashkil qildi. Kasallangan mevalarda chirish va quruq nekroz hodisalari kuzatildi, ba’zi holatlarda esa hosilning 50% gacha sifatsizlangani qayd etildi.

Venturia pyrina – barg va novdalar kichik, jigarrang dog‘lar hosil qiladi. Ular hududdan hududga tez tarqalishi bilan xarakterlanadi. Venturia pyrina barglarni zararlab, daraxtlarda “shartli kasallik” sifatida rivojlanadi, ya’ni yuqori darajada patogenlik ko‘rsatmasa ham, barg to‘qimasining fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu mikromitsetning tarqalishi namlik va havo haroratiga sezgirligi bois, turli iqlim sharoitlarida patogenlik darajasi o‘zgarishi mumkinligi kuzatildi.

Venturia pyrina mitseliyi septali va tarmoqlangan bo‘lib, to‘qimaning yuqori yuzasida hamda zararlangan barg to‘qimalari oralig‘ida rivojlanadi. Mitseliy odatda rangsiz, ixcham, tarmoqlangan tuzilishga ega. Barglar oralig‘idagi hujayralar orasida tarqalishi mitseliyni bargning yuqori va pastki yuzasida vizual ravishda ko‘rish imkonini beradi. Mitseliy barg to‘qimasida lokal konsentratsiya hosil qiladi, bu bargning zahira quvvatini kamaytiradi va fotosintez jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Konidiyalar silindrik yoki yumaloq silindrik shaklda, bir necha septa bilan ajratilgan. Har bir konidiya 15-25 mkm uzunlikda va 5-7 mkm kenglikda. Konidiyalar konidiaforlar orqali havo,

yomg‘ir yoki suv yordamida tarqaladi. Bu mikromitset tomonidan hosil qilingan dog‘lar barg va novda umumiy maydonning 10–25% ni egallaganligi aniqlandi. Shunga ko‘ra uning patogenlik darajasi o‘rtacha hisoblandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, P. communis da kuzatilgan kasallik belgilari asosan ushbu uch mikromitset ta’sirida rivojlanadi. Diplocarpon mespili asosan barglarda, Monilia fructigena mevalarda va Venturia pyrina barg va novdada zararlanishni keltirib chiqaradi. Tadqiqotda aniqlangan mikromitsetlar P. communis dagi kasalliklarning asosiy qo‘zg‘atuvchilari sifatida e’tirof etilishi va ularning morfologik belgilari orqali identifikatsiya qilinishi, kelgusi fitopatologik tadqiqotlar hamda samarali kasallikka qarshi profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, *P. communis* da kuzatilgan kasallik belgilari asosan uch mikromitset - *Diplocarpon mespili, Monilia fructigena* va *Venturia pyrina* ta’sirida rivojlanadi. *Diplocarpon mespili* asosan barglarda qora dog‘lar hosil qilib, fotosintez jarayonini pasaytirsa, *Monilia fructigena* mevalarda chirish va nekroz hodisalarini keltirib chiqaradi. *Venturia pyrina* barg va novdada patogenlik qilib, barg to‘qimasining fiziologik holatiga salbiy ta’sir qiladi. Zararlanish darajasi har bir tur uchun farqli bo‘lib, ularning patogenlik salohiyati va tarqalish xususiyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, mazkur mikromitsetlar *P. communis* dagi kasalliklarning asosiy qozg‘atuvchilari sifatida e’tirof etildi va kelgusi profilaktika va fitopatologik tadqiqotlarda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prell H.H., Day P.R. Plant-fungal pathogen interaction: a classical and molecular view. – Berlin : Springer, 2001. – C. 1-214.

2. Bhushan B. T. et al. Compendium of phytopathogenic microbes in agro-ecology: Vol. 1 Fungi. – 2025.

3. Guerif P. et al. Microscopic Studies of Scab Resistance Symptoms (Venturia Pirina) on Leaves of Pear Cultivars (Pyrus Communis) //VIII International Symposium on Pear 596. – 2000. – C. 543-546.

4. Lācis G., Lāce B., Blukmanis M. Evaluation of the susceptibility of pear cultivars to scab (Venturia pirina Aderh.) //II International Symposium on Horticulture in Europe 1099. – 2012. – C. 741-747.

MIRZO KENJABEK IJODIDA MUMTOZ AN'ANA VA BADIIY-ESTETIK TAGAKKURNING YANGILANISHI

Payzullayeva Ra'no Maxmudovna,
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan shayx va shoir Mirzo Kenjabek ijodida mumtoz adabiyot an'analari, xususan, badiiy-estetik tafakkur, obrazlar tizimi va poetik shakllarning davomiyligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mumtoz merosning zamonaviy talqini va yangilanish jarayonlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, zamonaviy she'riyat, poetika, an'ana va yangilanish, obraz, badiiy tafakkur

Аннотация: В данной статье анализируются традиции классической литературы, в частности, преемственность художественно-эстетической мысли, система образов и поэтических форм в творчестве одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы, шейха и поэта Мирзо Кенджабека. Также раскрывается современная интерпретация классического наследия и процессы его обновления.

Ключевые слова: классическая литература, современная поэзия, поэтика, традиция и обновление, образ, художественная мысль

Annotation: This article analyzes the traditions of classical literature, in particular the continuity of artistic and aesthetic thought, the system of images, and poetic forms in the works of one of the greatest representatives of modern Uzbek literature, Sheikh and poet Mirzo Kenjabek. It also explores the contemporary interpretation of the classical heritage and the processes of its renewal.

Keywords: classical literature, modern poetry, poetics, tradition and renewal, image, artistic thought

O'zbek adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, unda mumtoz adabiyot alohida o'rin tutadi. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy kabi buyuk

mutafakkirlar yaratgan boy adabiy meros bugungi zamonaviy adabiyot uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ana shu mumtoz an’analarning davom etishi, yangi mazmun bilan boyishi muhim ilmiy muammolardan biridir. Bu jihatni Mirzo Kenjabek ijodi misolida ko‘rish mumkin.

Mumtoz o‘zbek adabiyoti o‘ziga xos poetik tizimga ega bo‘lib, unda ishq, ilohiylik, komillik, inson ruhiyati asosiy mavzulardan hisoblanadi. Bu an’analar zamonaviy shoirlar ijodida ham turli shakllarda davom etmoqda.

“Sharq-islom adabiyoti shaklni ham, vaznni ham, ijodiy konsepsiyani ham Qur’oni Karim va Hadisi shariflardan olgan”[12] – deya ta’kidlaydi adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov. Mirzo Kenjabek she’riyatida ham ana shu ruhiy-falsafiy, diniy-irfoniy yo‘nalishlar yetakchilik qiladi. Shoir ko‘pincha inson qalbi, iymon, muhabbat va hayotning ma’naviy mohiyatini tasvirlash orqali mumtoz adabiyotga xos g‘oyalarni zamonaviy ruhda ifodalaydi.

Shoir ijodiga mumtoz adabiyot ta’sirini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy ijodiga ergashish:
   a) muxammaslar bog‘lash
   b) aruz vazniga murojaat qilib, turli bahrlarda g‘azallar yozish
2. Jomiy va Navoiyga ergashib hadishlarni she’riy sharhlash
3. So‘fi Olloyor, Maxtumqulilar nazmiga tatabbular bog‘lash
4. Ma’rifiy-irfoniy mavzularda she’rlar yozish

Shoirning “Hali o‘lmay turib” deb boshlanuvchi g‘azali zamonaviy o‘zbek she’riyatida mumtoz badiiy-estetik tafakkurning yangilangan ko‘rinishini yaqqol namoyon etadi. Asarda markaziy g‘oya — ruhiy iztirob, hijron va ilohiy ishq orqali “ma’naviy o‘lim” konsepsiyasidir:

Hali o‘lmay turib, do‘stlar, bu hijron dog‘idan o‘ldim,
Ko‘zimda yosh bitib, sog‘lom yurak qaqrog‘idan o‘ldim.[13]

[12] Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: “Адабиёт”, 2001. – Б 13
[13] Мирзо Кенжабек. Ҳаёт садолари. Тошкент: “Oltin kitob”, 2025. – Б 74

Shoir “o‘lim” tushunchasini biologik hodisa sifatida emas, balki ruhiy azob,ishqiy iztirob, ichki poklanish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu esa mumtoz tasavvuf adabiyotidagi “o‘lmasdan oldin o‘lish” g‘oyasiga hamohangdir. G‘azal aruzning hazaji musammani solim bahrida yozilgan bo‘lib, hazaj mumtoz she’riyatda eng ko‘p ko‘p uchraydigan bahrlardan hisoblanadi. Bu ham Mirzo Kenjabekning yuksak poetik mahoratidan dalolat beradi.

Tiriklik kuyin deb lazgi, fano raqsiga termildim,
Va har daf’a sanam barmog‘ining titrog‘idan o‘ldim.

Bu yerda juda chuqur falsafiy qatlam bor: “lazgi” — hayot, harakat, zavq, “fano raqsi” — yo‘q bo‘lish, ilohiy yo‘lda erish. Lirik qahramon hayotni “raqslik jarayon” sifatida ko‘radi. “Sanam barmog‘ining titrogi” — nozik, lekin hal qiluvchi ta’sir. Bu — ishqning nozik, ammo halokatli kuchini bildiradi.

Agar do‘st qilsa dushmanlik, bu holdan o‘lmagan hech kim,
Yoronlar, men raqiblarning lutf ardog‘idan o‘ldim.

Baytda ijtimoiy-psixologik qatlam kuchli: “do‘stning dushmanligi” — xiyonat, “raqibning lutfi” — kinoyaviy ifoda. Lirik qahramon nafratdan emas, balki soxta mehrdan aziyat chekadi.

Etib tavba gunohzordan, u yuksak nurda poklandim,
Buzilgan xulq ila yorning yetuk axloqidan o‘ldim.

Bu bayt — she’rning irfoniy cho‘qqisi: tavba — ruhiy poklanish bosqichi, nur — ilohiy haqiqat ramzi sifatida talqin qilinadi. Ammo paradoks bor: lirik qahramon poklanadi, lekin baribir “o‘ladi”, “yorning yetuk axloqi” — mukammallik timsoli. Inson o‘z kamchiliklarini anglab, ichki iztirobga tushadi.

G‘azal maqtasida shoir shunday deydi:

Qalam ahli – olam ahli o‘limdan o‘lmagay, Mirzo,
Ki men ham dilda yor ishqi tug‘ilgan chog‘idan o‘ldim...[14]

Ishq tug‘ilgan lahza — “o‘lim” boshlanishi. Bu tasavvufdagi: “ishq – fanolik yo‘li” g‘oyasining aniq ifodasidir. She’rda boshdan-oyoq irfoniy mazmun yetakchi o‘rin tutadi.

[14] Мирзо Кенжабек. Ҳаёт садолари. Тошкент: “Oltin kitob”, 2025. – Б 74

Mazkur she’rda yangilanish quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) an’anaviy obrazlarning psixologik chuqurlashuvi

b) irfoniy mazmunning individual talqini

c) g‘azal unsurlarining erkin shaklda qo‘llanishi

d) “o‘lim” konsepsiyasining falsafiy kengayishi

Mirzo Kenjabekning “Hali o‘lmay turib...” g‘azai zamonaviy o‘zbek she’riyatida mumtoz badiiy-estetik tafakkurning yangilangan shaklini ifodalay oladi. Unda tasavvufiy g‘oyalar zamonaviy ruhda talqin qilingan, mumtoz obrazlar yangi semantik mazmun kasb etgan. Natijada she’r an’ana va yangilik uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. G‘azalda har bir bayt alohida iztirob bosqichini ifodalaydi, “o‘ldim” radifi orqali ichki dramatizm kuchayadi.

Mumtoz adabiyotning muhim jihatlaridan biri — chuqur falsafiylik va ramziy ifodadir. Bu xususiyatlar zamonaviy o‘zbek she’riyatida ham davom etmoqda. Mirzo Kenjabek she’rlarida hayot va o‘lim, vaqt, insoniylik, ma’naviyat kabi mavzular falsafiy mushohada asosida yoritiladi. Bu esa uni mumtoz adabiyot an’analarining munosib davomchisi sifatida ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti mumtoz adabiyot an’analari asosida shakllanib, yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Mirzo Kenjabek ijodi bu jarayonning yorqin namunasi bo‘lib, unda an’ana va yangilanish uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shoir mumtoz merosni shunchaki takrorlamaydi, balki uni zamonaviy tafakkur, yangi badiiy qarashlar bilan boyitadi. Shu bois uning ijodi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.
2. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: “Адабиёт”, 2001. – 257 б
3. Мирзо Кенжабек. Ҳаёт садолари. Тошкент: “Oltin kitob”, 2025. – 282 б
4. Шайх Аҳмад ибн Худайдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.

САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИ ТИЗИМИДА – ЯНГИ МАҚОМДАГИ ҲУДУДИЙ САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Абдусатторов Фахриддин Абдукаххорович

Сирдарё вилояти Ҳудудий сайлов

комиссияси раисининг ўринбосари

Мамлакатимизда замонавий сайлов тизимини яратиш, сайлов қонунчилигини такомиллаштириш, сайловларни умумэътироф этилган халқаро тамойиллар асосида ўтказиш борасида мунтазам изчил изланишлар олиб борилмоқда. Бунда фуқароларнинг ўз хоҳиш-иродаларини эркин билдиришлари кафолатланганлиги, ҳар бир фуқаронинг давлат ҳокимияти вакиллик органларига эркин сайлаш ва сайланиш ҳуқуқини тўлиқ таъминлайдиган қонунчилик яратилганлиги муҳим ҳуқуқий замин бўлиб хизмат қилмоқда. Мамлакатимизда сайловларга тайёргарлик ва ўтказиш жараёнларини халқаро андозалар асосида энг илғор сайлов қонунчилиги даражасига етказиш мақсадида қатор халқаро ҳужжатларда белгиланган принциплар миллий қонунчилигимизга имплементация қилинган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг умумхалқ овоз бериши орқали қабул қилинганидан сўнг Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига киритилган қатор ўзгаришларга мувофиқ мамлакатимиз сайлов тизимида тубдан ўзгаришлар юз берди.

Жаҳоннинг энг ривожланган давлатларида кўп йиллардан буён амалиётда фойдаланиб келинаётган аралаш сайлов тизими ва сайлов комиссияларининг вертикал тизимига асос солинди. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, 2024 йил 27 октябрда Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва маҳаллий Кенгашларга бўлиб ўтган сайловлар ушбу янги тизим асосида муваффақиятли ўтказилди.

Бу жараёнда янги ташкил этилган ҳудудий сайлов комиссиялари фаолияти муҳим аҳамият касб этди. Айниқса, ушбу комиссиянинг икки нафар аъзосининг

фаолияти белгиланган 5 йил муддат давомида доимий асосда юритилиши белгилаб қўйилганлиги марказ ва ҳудуд ўртасида доимий кўприк вазифасини бажариб келмоқда.

“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига сайлов ва референдум ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2023 йил 18 декабрдаги ЎРҚ-883-сон қонуни билан сайлов комиссиялари тизими 5 бўғиндан иборат этиб қатъий белгиланди ва мазкур қонуннинг 4-бандига мувофиқ Сайлов кодексининг 11-моддасида сайлов комиссиялари тизимига қуйидагилар:

Марказий сайлов комиссияси;

ҳудудий сайлов комиссиялари;

туман ва шаҳар сайлов комиссиялари;

халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларига сайлов ўтказиш бўйича округ сайлов комиссиялари;

участка сайлов комиссиялари кириши ва ушбу комиссияларнинг фаолиятини ташкил этиш юзасидан нормалар белгиланди.

Марказий сайлов комиссияси сайловга камида саксон кун қолганида ҳудудий сайлов комиссияларини комиссия раиси, раис ўринбосари, котибидан ва комиссиянинг ўн икки — ўн саккиз нафар бошқа аъзоларидан иборат таркибда тузади – деб белгилаб қўйилди.

Бу эса ҳудудий комиссияларнинг сифат жиҳатидан юқори даражада бўлишини таъминлашга, унинг нуфузи ҳамда масъулиятининг янада ошишига муҳим фактор сифатида хизмат қилди.

Ушбу модданинг 3-хатбошига асосан “Туман, шаҳар сайлов комиссиялари аъзолигига номзодлар халқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашларининг

мажлисларида муҳокама қилинади ҳамда ҳудудий сайлов комиссиясига тасдиқлаш учун тавсия этилади.

Ҳудудий сайлов комиссияси сайловга камида етмиш беш кун қолганида туман, шаҳар сайлов комиссияларини комиссия раиси, раис ўринбосари, котибидан ва комиссиянинг саккиз — ўн саккиз нафар бошқа аъзоларидан иборат таркибда тузади” – деб ҳудудий сайлов комиссиясининг ўз ўрнида туман, шаҳар сайлов комиссияларини тузиши ва тузиш тартиби белгилаб берилди, бу сайлов комиссиялари тизимидаги янги ёндашув, янги масъулият ва янги тартиб сифатида эътироф этилиб сайлов комиссияларининг тўғри шаклланиши, комиссиялар таркибининг муносиб номзодлардан иборат бўлишига, келгуси фаолиятларининг ҳам самарали бўлишига хизмат қиладиган омил бўлди.

Сайлов кодексининг 20-моддасида Ҳудудий сайлов комиссиясининг ваколатлари белгиланиб, унда Ҳудудий сайлов комиссиясига 30 дан ортиқ ваколатлар қайд этилди, ўзгаришлар киритилмасдан олдинги ваколатларга назар солсак унда вилоят, туман, шаҳар сайлов комиссиясининг ваколатлари 16 тадан иборат эди. Шуни алоҳида қайд этиш лозим, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг 2024 йил 27 майдаги “Ҳудудий сайлов комиссияси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1330 – сонли қарори билан тасдиқланган “Ҳудудий сайлов комиссияси тўғрисидаги низом”нинг 4 – боб: Ҳудудий сайлов комиссиясининг ваколатлари, 17 – бандда Ҳудудий сайлов комиссиясининг ваколатлари янада батафсил қайд этилиб, 52 та ваколат ва вазифалар белгилаб берилди.

Ҳудудий сайлов комиссияси: тегишли ҳудудда Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қонунчилик палатаси, маҳаллий Кенгашлар депутатлари сайловларига тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишни ташкил этиш белгиланди. Бу ниҳоятда муҳим норма бўлиб, Ҳудудий сайлов комиссиясига Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Қонунчилик палатасига бўлиб ўтадиган сайловларга ҳам бевосита тегишли ҳудудда тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишни ташкил этиш янги

вазифаси, ваколати берилди, олдинги сайловларда бундай ваколатлар ҳар бир ҳудудда ташкил этиладиган округ комиссияларида бўлган. Бундай ваколатнинг Ҳудудий сайлов комиссияларига берилиши аввало сайлов қонунчилигимизнинг такомиллашиши, яна бир муваффақияти бўлса, сайлов жараёнларига тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишнинг янги босқичга кўтарилиши, яъни жараённи фақатгина сайлов даврига тузиладиган округ комиссиялари томонидан эмас балки 5 йил давомида фаолият юритадиган профессионал даражага чиқаётган комиссия томонидан ташкил этилиши сайловларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишни юксак даражада амалга оширилишига хизмат қилади.

Яна бир муҳим ваколатлардан бири бу мазкур модданинг 4-хатбошида: туман, шаҳар ва округ сайлов комиссияларини тузади ҳамда уларнинг таркиби ва жойлашган ери тўғрисидаги маълумотларни эълон қилади, 5-хатбошида: тегишли туман, шаҳар, округ ва участка сайлов комиссиялари фаолиятига раҳбарлик қилади - деб белгилаб қўйилди. Бундан кўришимиз мумкинки, киритилган ўзгаришга мувофиқ Ҳудудий сайлов комиссиялари туман, шаҳар сайлов комиссияларини ҳам тузиши, шу билан биргаликда бевосита тегишли туман, шаҳар, округ ва участка сайлов комиссиялари фаолиятига раҳбарлик қилиши белгиланди. Бу эса Ҳудудий сайлов комиссиялари масъулиятини янада ошишига ушбу комиссияларга номзодларни тавсия қиладиган халқ депутатлари туман, шаҳар Кенгашлари билан яқиндан ҳамкорликда ишлаб комиссиялар таркибига энг муносиб номзодларни жалб қилиш вазифасини қўяди.

Бўлиб ўтган сайловларда Сирдарё вилоятида айнан шу жараённи амалга оширилди.

Барча халқ депутатлари туман, шаҳар Кенгашларида Сайлов кодексининг 25-моддасида белгиланган Ҳудудий, туман, шаҳар, округ ва участка сайлов комиссиясига аъзолик бўйича комиссия аъзоларига қўйиладиган талаблар, яъни: “Йигирма бир ёшга тўлган, ўрта ёки олий маълумотга, қоида тариқасида, сайловга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш борасида иш тажрибасига эга бўлган, аҳоли

ўртасида обрў-эътибор қозонган фуқаролар ҳудудий, туман, шаҳар сайлов комиссиясининг, округ ва участка сайлов комиссиясининг аъзоси бўлиши мумкин”лиги номзодларни танлаш, тавсия қилиш юзасидан суҳбатлар ўтказилди ва номзодлар тавсия этилди.

Яна бир диққатга сазовор ваколат бу мазкур модданинг 14 – хатбошисида белгиланган: Қонунчилик палатаси депутатлигига ҳамда халқ депутатлари вилоят, Тошкент шаҳар Кенгаши депутатлигига номзодларнинг ишончли вакилларини рўйхатга олади ва уларга тегишли гувоҳномалар бериши. Олдинги нормалар бўйича халқ депутатлари вилоят, Тошкент шаҳар Кенгаши депутатлигига номзодларнинг ишончли вакилларини рўйхатга олиш ва уларга тегишли гувоҳномалар бериш амалиёти бўлган, киритилган ўзгариш бўйича Қонунчилик палатаси депутатлигига номзодларнинг ишончли вакилларини рўйхатга олиш ва уларга тегишли гувоҳномалар бериш – бу ҳам Ҳудудий сайлов комиссияларининг нуфузини, мақоминиг кўтарилиши шу билан биргаликда масъулиятининг ошишига асосий омиллардан бири бўлди. Бу ваколатни амалга ошириш юзасидан ҳам барча номзодлар билан яқиндан мулоқотда бўлиш, уларнинг ишончли вакилларини рўйхатга олиш, сайлов олди ташвиқотларини амалга оширилишида, уларнинг комиссия мажлисларида иштирок этишларига ва барча муносабатларни қонунийлик доирасида тўғри амалга оширишга ўзига хос мактаб бўлди.

27-хатбошида белгиланган: Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қонунчилик палатаси депутатлари сайловида тегишли ҳудуд бўйича сайлов натижаларини аниқлайди ва уларни Марказий сайлов комиссиясига тақдим этиш, 29 – хатбошида белгиланганидек: маҳаллий Кенгашларга сайлов якунлари тўғрисида Марказий сайлов комиссиясига ҳисобот бериш ҳам Ҳудудий сайлов комиссияларининг масъулиятининг ошишига, ҳисобдорликни тўғри йўлга қўйилишига сабаб бўладиган омиллар ҳисобланади.

Бир сўз билан айтганда, Ҳудудий сайлов комиссиялари сайловларга тайёргарлик кўриш ва ўтказишда қонунчиликда белгиланган ваколат ва

вазифаларни амалиётга тадбиқ этиш ва бажариш давомида сайлов жараёнларида ўзининг муносиб ўрнига эга бўлди, жараёнда муҳим бўғинлардан бири сифатида шаклланди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, хулоса қилиб шуни алоҳида таъкидлаш жоиз, мамлакатимизда сайлов тизимини, сайлов қонунчилигини такомиллаштириш, умумэътироф этилган халқаро тамойилларга мослаштириш ўзининг ижобий самараларини бермоқда, бунга 2024 йил 27 октябрда ўтказилган сайловлар тўлиқ ва ёрқин мисол бўла олади. Сайлов комиссиялари тизимининг такомиллашганлиги, жараёнларга рақамли технологияларнинг кенг жалб этилганлиги сабабли сайловлар муваффақиятли ташкил этилиб халқаро эксперт ва кузатувчилар томонидан ҳам муносиб эътироф этилди.

Фойдаланилган адабиёт ва манбалар рўйхати

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (2023 йил таҳрири)

[2] Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси (2019 йил, 25 июнь)

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 8 февралдаги “Сайлов қонунчилиги такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 670-сонли Қонуни

[4] Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 31 майдаги “Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 691-сонли Қонуни

[5] Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 18 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига сайлов ва референдум ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 883-сонли Қонуни

[6] Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг 2024 йил 27 майдаги “Ҳудудий сайлов комиссияси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1330 – сонли қарори

[7] Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 5 майда қабул қилинган «Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларига сайлов тўғрисида»ги Қонуни

[8] Марказий сайлов комиссияси расмий сайти – [www.elections.uz] (http://www.elections.uz)

[9]. “Сайлов ҳуқуқи асослари” ўқув қўлланмаси, Юридик нашриёт

[10] “Янги Ўзбекистон” газетаси расмий сайти (https://yuz.uz/news/saylov--demokratiya-kozgusi)

[11] “Халқ сўзи” газетаси расмий сайти

MUNDARIJA

1	IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEK XALQINING FRONT VA FRONT ORTIDAGI JASORATI	Shukurov Jasurbek	**4**
2	GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA DOLZARB MASALALARI	Xolmatov Baxrom Uktamovich	9
3	TALABALARDA IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETUVCHI METODIKALAR TAHLILI	Xursanova Lobar Ergashovna Arziqulov D.N.	14
4	CLADOSPORIUM ZAMBURUG‘ININGRIVOJLANISHI VA UNING ALLERGENLIK XUSUSIYATI	Mamatova Bahora Shokir qizi Kattaboyeva Gulnoza Safarovna	24
5	QARSHI VOHASI SHAROITIDA PYRUS COMMUNIS DA KASALLIK QO‘ZG‘ATUVCHI MIKROMITSETLAR	Toshev Nurlan Ikrom o‘g‘li	29
6	MIRZO KENJABEK IJODIDA MUMTOZ AN’ANA VA BADIIY-ESTETIK TAGAKKURNING YANGILANISHI	Payzullayeva Ra’no Maxmudovna	35
7	САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИ ТИЗИМИДА – ЯНГИ МАҚОМДАГИ ҲУДУДИЙ САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	Абдусатторов Фахриддин Абдукаххорович	39